IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 21 Issue 2 May 2026

ABDULLA ORIPOV IJODIDA QO‘LLANGAN MIFONIMLARNING LEKSIK-SEMANTIK TALQINI

Abdulboqiyeva Rayxona Abduvosit qizi
Namangan davlat universiteti 1-bosqich magistranti
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20454556

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov ijodida qo‘llanilgan mifonimlarning lingvistik xususiyatlari tadqiq etiladi.Shoir she’rlarida uchraydigan mifologik nomlarning leksik-semantik xususiyatlari, uslubiy ahamiyati, konnotativ ma’nolari hamda badiiy matndagi vazifasi tahlil qilinadi. Shuningdek, mifonimlarning metaforik, ramziy va assotsiativ ma’no yuzaga chiqarishdagi o‘rni lingvistik jihatdan yoritiladi. Tadqiqot natijasida Abdulla Oripov she’riyatidagi mifologik nomlar semantic va uslubiy yaxlitlikni ta’minlovchi muhim onomastik birliklar ekani asoslanadi.

Kalit so‘zlar: Mifonim, onomastik birlik, konnotativ ma’no, assotsiativ ma’no, allyuziya, mifoantroponim, mifozoonim, mifofitonim, mifotoponim, mifogidronim, mifoteonim, mifonekronim, mifoetnonim.

Kirish. O‘zbek she’riyatining yirik vakillaridan biri sanalmish Abdulla Oripov o‘zining betakror poetik tafakkuri, chuqur falsafiy qarashlari hamda o‘ziga xos uslubi bilan ajralib turadi. Shoir Matyoqub Qo‘shjonov tomonidan she’riyatga o‘ziga xos ovoz, individual ruh va samimiy hissiyotlar bilan kirib kelgan ijodkor sifatida e’tirof etiladi. Chindan ham, ijodkorning asarlarini o‘qigan yo eshitgan she’rxonda shunday taassurot tug‘iladiki, shoirning his va tuyg‘ularining cheki yo‘q. U tuyg‘ular bilan to‘lib toshgan, toshqin daryodek jo‘shqin qalb egasi.[1]Insoniy tuyg‘ularning tabiiy ifodasi, jo‘shqin ruh, kuchli emotsionallik shoir she’riyatida qo‘llangan badiiy vositalarda, jumladan mifologik nomlarda ham yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Onomastik birliklardan biri bo‘lgan mifonimlar atoqli otlarning o‘ziga xos turlaridan hisoblanadi. “Mifonim” atamasi yunoncha mythos — “afsona”, “rivoyat”, “asotir” hamda onoma — “nom” birliklaridan tashkil topgan bo‘lib, afsonlar, epopeyalar, ertaklarda uchraydigan atoqli otlar[2] ma'nosini bildiradi. Lingvistik talqinga ko‘ra, mifonimlar turli mifologik qahramonlar, ilohiy mavjudotlar, demonik obrazlar, afsonaviy buyumlar va muqaddas maskanlarni ifodalovchi leksik birliklar sanaladi. Bunday nomlar matnda oddiy nominativ birlik bo‘lib qolmay, muayyan semantik, ekspressiv va uslubiy vazifalarni ham bajaradi. Mifologik nomlar matn tarkibida keng assotsiativ maydon hosil qilib, kitobxon tafakkurida tarixiy, diniy va madaniy tasavvurlarni jonlantiradi. Abdulla Oripov ijodida Sharq, turkiy, yunon, fors va islom mifologiyasiga oid mifonimlar keng qo‘llanilgan bo‘lib, ushbu mifonimlar orqali muallif milliy ong, tarixiy xotira, diniy-falsafiy qarashlar hamda umuminsoniy qadriyatlarni ifodalashga erishadi. Mifonimlarning semantik tuzilishi, konnotativ ma’nolari va matn tarkibidagi funksional-uslubiy imkoniyatlarini tadqiq etish bugungi o‘zbek tilshunosligida dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki mifologik nomlar badiiy matnda metaforik, ramziy va assotsiativ ma’no hosil qiluvchi muhim lingvistik vositalardan biridir. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi Abdulla Oripov she’riyatida qo‘llangan mifonimlarning leksik-semantik tabiati hamda uslubiy funksiyalarini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot jarayonida shoir asarlaridan olingan mifologik nomlar lingvistik jihatdan o‘rganilib, ularning poetik matndagi semantik va ekspressiv imkoniyatlari yoritiladi.

Hayoliy, afsonaviy nomlar onomastik ko‘lamga kiruvchi barcha atoqli ot guruhlari tarkibida uchrab, nomning mifonim deyilishi sababini E.Begmatov quyidagicha izohlaydi: “unda

[1]Қўшжонов М., Мелиев С. Абдулла Орипов. — Тошкент: Маънавият, 2000. — Б. 20.
[2]Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б. 47.

ifodalangan narsa, obyektning real mavjudlikka emas, balki xayolga, tasavvurga, farazga asoslanganligidir. Demak, nomning motivida mifik tasavvur yotadi. Bunday nom toponim ham, antroponim ham, zoonim ham, oronim ham, gidronim ham bo‘lishi mumkin.”[3] Shunga ko‘ra mifonimlar mifoantroponim, mifozoonim, mifofitonim, mifotoponim, mifogidronim, mifoteonim, mifonekronim, mifoetnonim kabi turlarga ajratiladi. Abdulla Oripov she’riyatida qo‘llangan mifonimlar leksik-semantik jihatdan ko‘p qatlamli va sermazmun birliklar sifatida namoyon bo‘ladi. Ular nafaqat nominativ vazifani bajaradi, balki obrazning ichki mohiyatini ochib beruvchi semantik vosita sifatida ham xizmat qiladi. Mifonimlar tarkibida denotativ ma’no bilan bir qatorda kuchli konnotativ ma’no ham mavjud bo‘lib, bu ularning badiiy matndagi uslubiy salohiyatini kengaytiradi. Shoir she’rlarida suv parisi, suv qizi, pari, malak, ruh, Tavrid go‘zali, farishta, pahlavon, Rum va Romul, iblis, jin, shayton, Ohtamar, Eram bog‘i, Xizr, Humoy, alvasti, mahluq, jomi Jam, Qor odam, dev, Xurmuzd, Axraman, ajina, ko‘ztumor, ajdaho, Avatar, Sai bobo kabi mifonimlar qo‘llangan bo‘lib, quyida ulardan ayrimlari tahliliga to‘xtalamiz.

“Suv parisi” she’rida bir necha mifonimlar uchraydi:

O,suv qizi,suv qizi, kimsan,ayla inoyat,
Kokilingga cho‘lg‘onmish qaysi mudhish hikoyat.
Malakmisan yo Tavrid afsonaviy go‘zali,
Qaysi haram yulduzi,qaysi yurak g‘azali.
Sen kimlar hayolida yurmoqdasan sarsari
Hiyonatkor bir go‘zal ruhimisan yo, pari.(T.a,I-jild,23-b)

Suv parisi mifonimi Yevropa xalqlarining afsona va miflarida uchraydigan afsonaviy jonzot. Suv qizi leksemasi ham aynan suv parisi ma’nosida qo‘llangan bo‘lib, parchada ideal go‘zallik timsolini ifodalab kelgan. Shuningdek, suv qizi birikmasi takror qo‘llangani emotsionallik hamda murojaat shaklini kuchaytirishga xizmat qilgan. Malak hamda pari mifonimlari farishta m’nosini bildirib, parchada “go‘zal ayol” konnotativ ma’nosida qo‘llangan. Tavrid go‘zali mifonimi esa qadimgi yunon mifologiyasidagi mashhur qahramon “Ifigeniya”ga ishora qilib, ushbu ibora intertekstual vosita va mifologik allyuziya sifatida qo‘llanadi.

Arman hasratlari bari bundadir,
Bundadir Majnunning do‘sti Ohtamar.
Bunda Sosun o‘g‘li kezib yuribdi.
Otdan tushgan emas hamon fidoyi.(T.a, I-jild,130-b)

Ushbu parchada Ohtamar va Sosun o‘g‘li mifonimlari arman xalqi matonatini ramziy tasvirlashga xizmat qilgan. Ohtamar (Axtamar) arman xalq mifologiyasidagi obraz bo‘lib, uni Majnun bilan yonma-yon qo‘llash turli xalqlar mifologiyasidagi ishq va iztirob hissiyoti birligi mushtarakligini ko‘rsatib, matnga intertekstual qatlam, mifopoetik universallik olib kiradi. Sosun o‘g‘li mifonimi esa arman xalq qahramonlik eposi “Sosunlik Dovud” dostonidagi bosh qahramon nomi bo‘lib, shoir arman xalqining ozodlik uchun kurashini tasvirlashda ushbu mifik timsoldan mahorat bilan foydalangan. “Otdan tushgan emas hamon fidoyi” misrasi esa ushbu mifonimning qahramonlik, vatanparvarlik, fidoyilik semalarini ifodalaydi.

Bahodirlik ichra yor sizga Humoy,
Siz ulug‘ zotlarning izin bosgan er. (T.a,II-jild,37-b)

Parchada qo‘llangan Humoy mifonimi turkey xalqlar mifologiyasida baxt-saodat ramzi bo‘lgan afsonaviy qush nomi bo‘lib, Abdulla Oripov bu mifonim orqali qahramonni baxt va sharaf yor bo ‘lgan ideal shaxs darajasida tasvirlaydi. Mifonim ko‘chma ma’noda qo‘llangan bo‘lib, omad keltiruvchi, qo‘llab-quvvatlovchi ramziy timsolni ifodalaydi. Yana boshqa she’rda

[3]Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. - Тошкент: Фан, 2013. - Б.47.

esa bu mifonim “shahri humoy” tarzidagi metaforik birikma holatida qo‘llanilib, saodat maskani ma’nosida keladi:

Ajib tasodif yo shahri humoy bu,
Hoynahoy, dahosi tuganmas joy bu.(T.a,I-jild,187-b)

Shoir mifonimlardan o‘xshatish vositasi sifatida foydalanib, juda kuchli ramziy ma’no ifodalaydi:

Imonni asrangiz, u doim tanho,
Undadir mujassam inson matlabi.
Avlodlar axtarib yurmasinlar to,
Uni allaqanday Qor odam kabi. (T.a, I-jild,317-b)

Qor odam mifonimi mavjudligi isbotlanmagan, afsonalarda eshitilgan mifik obraz bo‘lib, shoir uni imonga o‘xshatib chuqur falsafiy ma’no ifodalaydi.

Afsonaviy devlar u – qo‘llarida urto‘qmoq,
O‘tgan-ketgan bandani o‘zicha yurgan tergab. (T.a,II-jild,105)

Dev mifonimi afsonalarda uchraydigan ulkan gavdali, qo‘rqinchili va yovuz mifologik obraz bo‘lib, shoir bu obraz orqali insonlarni nazarda tutadi. Natijada mifonim shafqatsizlik, adolatsizlik semalarini ifodalovchi badiiy vositaga aylangan. Urto‘qmoq detali esa dev obrazining zo‘ravon xarakterini yanada kuchaytiradi, chunki ertaklarda ko‘pincha devlar gurzi, tayoq, urto‘qmoq ko‘targan holda tasvirlanadi. Yana bir boshqa she’rda ham dev mifonimining falsafiy-majoziy ma’noda qo‘llanganini ko‘rishimiz mumkin:

Devlar qutulgandek Sulaymon o‘lib,
Betizgin tuyg‘ular har yon yugurgay. (T.a,II-jild,255)

Mazkur parchada shoir dev mifonimi hamda devlar,jinlar, tabiat kuchlari ustidan hukmronlik qilgan Sulaymon payg‘ambar obrazi orqali inson ruhiyatidagi ma’naviy nazorat masalasini chuqur falsafiy asosda ifodalagan. Bu yerda devlar inson nafsi, salbiy illatlari; Sulaymon esa aql, iroda, ma’naviy nazorat sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, “betizgin tuyg‘ular” ifodasi metaforik xarakterga ega bo‘lib, inson hissiyotlarini yovvoyi otdek jilovlash qiyinligini ifodalab, parcha mazmunini boyitgan.

Abdulla Oripov she’riyati teran falsafiy mazmuni hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘ziga xos poetik shaklda ifodalashi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Shoir ijodida uchraydigan onomastik birliklar, xususan mifonimlar badiiy matnning ma’no doirasini kengaytiruvchi va uslubiy ta’sirchanligini kuchaytiruvchi muhim poetik vositalardan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar natijasida ma’lum bo‘ldiki, shoir asarlarida qo‘llangan Ohtamar, Humoy, Sosun o‘g‘li, Rum va Romul, Xurmuzd, Axraman kabi mifonimlar turli xalqlarning mifologik qarashlari, diniy tasavvurlari hamda folklor an’analari bilan uzviy bog‘liq holda qo‘llanilgan. Mazkur birliklar matnda faqat nomlash vazifasini bajarib qolmay, balki ramziy, majoziy va assotsiativ ma’nolarni ifodalovchi muhim lingvopoetik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.Abdulla Oripov mifonimlardan insonning ruhiy olami va ichki kechinmalarini yoritishda, ezgulik bilan yovuzlik o‘rtasidagi ziddiyatni tasvirlashda, muhabbat, sadoqat, armon va fidoyilik kabi tushunchalarni badiiylashtirishda samarali foydalangan. Shuningdek, ular orqali shoir falsafiy mushohada yuritadi hamda milliy va umumbashariy qadriyatlarni aks ettiradi. Shoir poetikasida mifonimlar ko‘pincha metafora, ramz, allegoriya, o‘xshatish va mifopoetik obraz shaklida namoyon bo‘ladi. Bu esa she’riy matnning emotsional-ekspressiv kuchini oshirib, uning ko‘p qatlamli semantik tuzilishini shakllantiradi. Bundan tashqari, mifonimlar Abdulla Oripov she’riyatining lingvomadaniy xususiyatlarini ochishda ham muhim o‘rin tutadi. Shoir turli xalqlarga mansub mifologik obrazlarni badiiy uyg‘unlikda qo‘llash orqali Sharq va jahon madaniyatiga xos mushtarak ma’naviy qadriyatlarni yuksak poetik mahorat bilan ifodalaydi.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Oripov ijodida mifonimlarning qo‘llanishi shoirning keng dunyoqarashi, chuqur badiiy tafakkuri va so ‘z qo ‘llash mahoratini yaqqol namoyon etadi.

Mifonimlar she’riy matnning estetik ta’sirchanligini kuchaytirish, konnotativ hamda assotsiativ ma’no ifodalash, falsafiy mazmunini boyitish hamda muallifning individual uslubini shakllantirishda muhim birlik sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. 104 б.
2. Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. - Тошкент: Фан, 2013. 264б.
3. Қўшжонов М., Мелиев С. Абдулла Орипов. — Тошкент: Маънавият, 2000. 136б.
4. Орипов А. Танланган асарлар. I жилд. – Тошкент, 2001.432б.
5. Орипов А. Танланган асарлар. II жилд. – Тошкент, 2001.494б.